E-ISSN 2181-1466
ISSN 2181-6875

@buxdu_uz @buxdu1 @buxdu1 www.buxdu.uz

Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

3(3)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTI



3(3)/2026

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal
2026, № 3, mart

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo‘yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo‘yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo‘yicha, **tarix** fanlari bo‘yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan. Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti
Tahririyat manzili: 200117, O‘zbekiston Respublikasi,Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.
Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY’ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Bosh muharrir o‘rinbosari: Samiyev Kamoliddin A’zamovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mas’ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)
Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)
Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)
Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)
Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)
Mo‘minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)
Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor
Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Rasulov To‘lqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor
Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor
Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor
Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a’zosi (akademigi)
Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bo‘riyev Sulaymon Bo‘riyevich, biologiya fanlari doktori, professor
Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent
Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor
Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor
Murodov G‘ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor
O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor
Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor
To‘rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor
Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor
Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor
Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor
Bekova Nazora Jo‘rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jamilova Bashorat Sattorovna, filologiya fanlari doktori, professor
Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori
Jo‘rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor
Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor
Artikova Hafiza To‘ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor
Norboyeva Umida Toshtemirovna, biologiya fanlari doktori, professor
Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor
Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor
Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor
Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent
Raupov Soyib Saidovich, tarix fanlari nomzodi, professor
Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor
Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor
Qurbonova Manzila Bakiyevna, tarix fanlari nomzodi, professor
Ochilov Alisher To‘lis o‘g‘li, tarix fanlari doktori, professor
Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent
G‘aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor
O‘rinova Bozorgul Zokirovna, tarix fanlari doktori, dotsent

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
QUTLOV		
Saidov Y.S., Toirova G.I.	Ilmga bag‘ishlangan umr	4
ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**		
Gadoeva M.I., Nurulloeva Z.V.	Character depiction in Eastern and Western literature: William Shakespeare and the representation of Mirzo Ulugbek	7
Avliyoqulova M.A.	Badiiy adabiyotda bolalik mavzusining shakllanishi	12
Bafoyeva R.V.	Postmodern adabiyotda fragmentatsiya estetikasi va shaxs ongining badiiy talqini	16
Djumayeva G.Z.	Henri Jeyms va Odil Yoqubov qissalarining janriy tabiati, psixologik va realistik talqinlar qiyosi	20
Egamberdiyeva G.E.	Oydin Hojiyeva hamda Halima Xudoyberdiyeva ijodiga xos umumiy xususiyatlar	25
Ergasheva D.A.	Koreys va o‘zbek adabiyotida hikoya janrining nazariy va tipologik xususiyatlari	29
Fayziyeva K.A.	Moddiy va ma’naviy qadriyatlar muvozanati buzilgan jamiyat hamda shaxs halokati dialektikasi (“Amerika fojiasi” romani)	35
Fayzullayeva N.S.	XXI asr detektiv asarlarida ishonch, aldov va haqiqat masalasi: psixologik realizmning poetik funksiyasi	39
Gayibova F.N.	Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi’’ romanida qo‘llanilgan nazmiy parchalarning g‘oyaviy-badiiy talqini	44
Habibova M.N.	Adabiy matnlarning lingvopragmatik tahlili, nazariy asoslari va metodologik yondashuvlar	49
Hayitov Sh.A., Muxammadova M.M.	Nisoriy Bayramxon va Mavlono Mansuriy Tabriziy haqida	53
Ishankulova D.A.	Umar Xayyom ruboiylarida ijtimoiy masalalar va ularning inglizcha tarjimalardagi ifodasi	59
Karimova Sh.K., Raimova N.E.	General characteristics of Roald Dahl’s literary heritage	64

Rajabova M.B., Ibragimova N.I.	Buxoro muzey-qo‘riqxonasi fondidagi Alisher Navoiy merosi: qo‘lyozma va toshbosma matnlar tahlili	69
Saakyan R.Y.	Polemical strategies in the reformist activities of the Young Bukharians	74
Soybnazarov N.M.	Social determinism, desire, and class-constrained agency in Theodore Dreiser’s An American tragedy	78
Xasanova M.J.	Muhammad Rizo Ogahiy qasidalari	84
Xasanova N.Sh.	Nodira Ofoq ijodida ona talqini	88
Xoliqulova I.X.	Nasriy asarlarda folklorizm namunalarining aks etishi	93
Исматов С.С.	Француз эпосида қаҳрамон ва ҳокимият: сиёсий идеологиянинг бадиий репрезентацияси	97
Рахимова Ш.Р.	Орнитологическая метафорика в романе Колума Маккэнна «Апейрогон»	103
Рахмонова М.А.	Сравнительное исследование русской и французской детской литературы: исторический, типологический и поэтический аспекты	107
Шакирова Г.Р.	Элементы античной мифологии в мифологии славянских народов: сравнительно-исторический анализ	112
Юлдошов О.У.	Концепты «месть» и «справедливость» в романах А. Кадыри и А. Дюма	120
Tolibova F.F.	Ibrohim Haqqulovning “Navoiyga qaytish” kitobida tasavvuf istilohlari: “jazba” va “suluk” talqini	128
MATNSHUNOSLIK VA MANBASHUNOSLIK * TEXNOLOGY AND LITERARY SOURCE STUDY *** ТЕКСТОЛОГИЯ И ЛИТЕРАТУРНОЕ ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ**		
Amonova Z.Q., Shokirova D.Sh.	“Jangnomayi Zufunun” toshbosmasida tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima	133
NAVOIY GULSHANI		
Bekova N.J., Qodirova Z.F., Muqimova M.O‘.	Alisher Navoiyning Hofiz Sheroziy g‘azaliga tatabbularidan biri tahlili	137
JURNALISTIKA * JOURNALISM *** ЖУРНАЛИСТИКА**		
Primov Sh.M.	Nosirjon Toshmatovning hajviy publitsistik asarlarida ijtimoiy illatlarning fosh etilsihi	141

TARIX * HISTORY *** ИСТОРИЯ**		
Farxadov Z.X.	Qadimgi Xorazmda din va davlatchilik munosabatlari: arxeologik va manbashunoslik tahlili	147
Jonqobılov J.N.	Surxon vohasida agrar munosabatlarning shakllanishida mexanizatsiyalash omili	151
Matyakubova Sh.X.	Ilk o‘rta asrlarda Xorazm vohasida sug‘orish tizimlari va dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi (arxeologik manbalar asosida)	156
Mirxakimova F.X.	Mustaqillik yillarida jadid namoyondalari yubileylarining nishonlanishi (Mahmudxo‘ja Behbudiy misolida)	160
Norbekov S.F.	Turkistonda sharqiy slavyan jamoalari va mahalliy aholi o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar yer, oziq-ovqat va sanitariya muammolari kontekstida (1918–1924)	164
Ro‘ziyeva T.Sh.	Mirzo Sirojiddin Hakim hayoti va ilmiy faoliyati	172
Sattorov Sh.B.	Ariylar masalasi: Janubiy Ural va BMAK materiallari asosida arxeologik tahlil	176
Sultanov S.M.	Janubiy Orolbo‘yida tosh asri jamoalarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimi: paleogeografik muhit va o‘zlashtiruvchi xo‘jalik xususiyatlari	182
Umarov B.B.	VIII–IX asrlarda Buxoro iqtisodiy hayotiga oid ayrim masalalar	186
Xakimov J.N.	Buxoro amiriligida sudlov masalalari va ijtimoiy-siyosiy jarayonlar	190
IQTISOD * ECONOMY *** ЭКОНОМИКА**		
Meylikov F.A., Siddiqova A.S.	Bozor muvozanati va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar	197
Sattarov U.U.	Sun’iy intellekt iqtisodiy boshqaruvning yangi paradigmasi	201
Sadullaev O.T., Mirzaev F.I.	A comprehensive analysis of risks affecting operational efficiency in the grain products manufacturing industry	205
MUNOSABAT * REFLECTION *** МНЕНИЕ**		
Hayitov Sh.A., Raxmonov K.Dj.	O‘zbekiston va Tojikiston: do‘stlik va birodarlik chorrahalarida	212

UO‘K 339.13.017

BOZOR MUVOZANATI VA UNGA TA’SIR KO‘RSATUVCHI OMILLAR

Meylikov Fazliddin Abduhalim o‘g‘li,
Qarshi davlat texnika universiteti assistent o‘qituvchisi
meylikovf@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6041-5755
Siddiqova Asila Salohiddin qizi,
Qarshi davlat texnika universiteti
Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
asilasiddiqova6@gmail.com

Annotatsiya. *Ushbu maqolada asosiy etibor bozor muvozanati va unga ta’sir etuvchi omillarga qaratilgan. Shularni hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotining asosiy tushunchalari, muvozanat hamda boshqa ta’sirlarni tahlilini ko’rishimiz mumkin. Shuningdek, narxning o‘zgarishi, iste’molchilarning daromadi, iste’molchi didi va afzalliklari, ishlab chiqarish xarajatlari, texnologiya darajasi kabi omillarning muvozanatga ta’siri yoritilgan bo’lib, yakunida bozor muvozanatini tiklash mexanizmlari va erkin bozor sharoitida narxlarning muvozanatga kelish jarayoni tushuntirilgan.*

Kalit so’zlar: *bozor muvozanati, talab, taklif, narx, iste’molchi, ishlab chiqaruvchi, daromad, texnologiya, davlat siyosati, soliq, subsidiyalar, narx nazorati, bozor mexanizmi, muvozanat narxi, tashqi ta’sirlar, ichki omillar, erkin bozor.*

РЫНОЧНОЕ РАВНОВЕСИЕ И ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕГО ФАКТОРЫ

Аннотация. *В данной статье основное внимание уделено рыночному равновесию и факторам, влияющим на него. С учётом этих факторов рассмотрены основные понятия рыночной экономики, а также проанализировано влияние различных факторов на равновесие. Кроме того, изучены: изменения цен, поведение потребителей и производителей, их предпочтения, производственные затраты, уровень технологий и другие ключевые элементы. В заключительной части раскрыт процесс достижения рыночного равновесия и механизмы восстановления равновесия в условиях свободного рынка.*

Ключевые слова: *рыночное равновесие, спрос, предложение, цена, потребитель, производитель, доход, технология, государственная политика, налог, субсидии, ценовой контроль, рыночный механизм, равновесная цена, внешние воздействия, внутренние факторы, свободный рынок.*

MARKET EQUILIBRIUM AND THE FACTORS INFLUENCING IT

Abstract. *This article focuses on both market equilibrium and the factors effecting on it. We can see that the basic concepts of a market economy is equilibrium and other influences. Also, the impact of factors such as price changes, consumer income, consumer tastes and preferences, production costs, and the level of technology on equilibrium is highlighted and the mechanisms for restoring market equilibrium and the process of prices reaching equilibrium in a free market are explained.*

Keywords: *market equilibrium, demand, supply, price, consumer, producer, income, technology, public policy, tax, subsidies, price control, market mechanism, equilibrium price, external influences, internal factors, free market.*

Kirish. Bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif o‘rtasidagi o‘zaro munosabat muhim ahamiyatga ega bo‘lib, aynan shu jarayonlar natijasida bozor muvozanati shakllanadi.

Bozor muvozanati - bu tovar va xizmatlar hajmi bilan iste’molchilar talabining muvofiqlashgan nuqtasi bo‘lib, narxlarning barqarorligi va iqtisodiy muvozanatni ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu muvozanat iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqaruvchilar faoliyatini samarali tashkil etish va aholining ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini belgilab beradi. Bozor muvozanatiga turli omillar ta’sir ko‘rsatgan. Jumladan, iste’molchilarning daromad darajasi, ishlab chiqarish xarajatlari, texnologik yangiliklar, davlatning iqtisodiy siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar hamda inflyatsiya jarayonlari talab va taklif o‘zgarishiga olib keladi. Shuning uchun ham bozor muvozanatini chuqur o‘rganish nafaqat nazariy, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi. Bu esa mamlakat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda, ishlab chiqaruvchilar strategiyasini belgilashda va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutgan.

Hozirgi davrda bozor iqtisodiyoti jarayonlari tobora murakkablashib borayotgan bir paytda, talab va taklif o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni chuqur o‘rganish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki talab va taklif iqtisodiy tizimning yuragi hisoblanib, ular asosida narxlarning shakllanishi, ishlab chiqarish jarayonlarining yo‘nalishi hamda iste’molchilarning ehtiyojlari belgilanadi. Talab va taklif muvozanati mavjud bo‘lmagan sharoitda esa bozorning barqaror faoliyat yuritishi qiyinlashadi, ishlab chiqaruvchilar foyda ololmaydi, iste’molchilar esa o‘z ehtiyojlarini to‘laqonli qondira olmaydi. Bozor faqatgina matematik yoki nazariy tushuncha emas, balki hayotiy zaruratdir. Chunki aynan muvozanat tufayli iqtisodiyotda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqaruvchilar faoliyatini samarali tashkil etish va aholining ehtiyojlarini imkon qadar to‘liqroq ta’minlash imkoniyati yuzaga keladi. Shu bilan birga, bozor muvozanati narxlarning haddan tashqari oshib ketishi yoki pasayib ketishining oldini olib, iqtisodiy barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv sharoitida talab va taklifga nafaqat ichki omillar, balki tashqi iqtisodiy munosabatlar, texnologik taraqqiyot, davlatning iqtisodiy siyosati, aholining daromad darajasi, inflyatsiya jarayonlari ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli bozor muvozanatini o‘rganish nafaqat nazariy masala, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo‘lib, mamlakat iqtisodiy siyosatini ishlab chiqishda, ishlab chiqaruvchilar strategiyasini belgilashda va iste’molchilar manfaatlarini himoya qilishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyotlar sharhi. Mavzuni o’rganar ekanman, men bir nechta o’zbek iqtisodchilar fikriga murojat qildim. Xususan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori A.Vakhabov va O’zbekiston iqtisodiyoti bo’yicha tadqiqotchi olim X.Abdurahmonovning ilmiy ishlari bozor muvozanati mavzusini chuqur yoritgan. Ularning fikricha “narx-iqtisodning bosh boshqaruvchisidir”, deb ta’kidlaydi. [1]

Shu bilan bir qatorda xorijiy tadqiqotchilar ham bozor muvozanati va unga ta’sir qiluvchi omillar haqidaizlanishlar qilib tahlil qilgan. A.Smit, D.Rikardo singari klassik iqtisodchilar bozor muvozanatini “Ko‘rinmas qo‘l” nazariyasi orqali izohlagan. Ularning ta’kidlashicha, erkin bozor sharoitida talab va taklif mexanizmi narxni muvozanat darajasiga olib keladi. Bu yondashuv bozorning o‘zini-o‘zi tartibga solish qobiliyatini asoslab bergan.

L.Valras va A.Marshall kabi neoklassik olimlar bozor muvozanatini matematik modellar orqali izohlashga harakat qilishgan. Valras umumiy muvozanat nazariyasini ishlab chiqib, barcha bozor segmentlari o‘zaro bog‘liq ekanini ko‘rsatgan. Marshall esa qisman muvozanatni, ya’ni alohida tovar bozorlari doirasida talab-taklif asosida narx shakllanishini tahlil qilgan [2].

Tadqiqot metodikasi. Tadqiqotni metodikasini ochib berish uchun quyidagi usullardan foydalanamiz: Bu tadqiqotda ilmiy-analitik, taqqoslash hamda statistik tahlil metodlarini qo’llaymiz.

Olingan natijalar va ularning tahlili. Ishlab chiqarishning o‘zi nima, u qachon va nima sababdan paydo bo‘lgan va nihoyat, nima uchun u iqtisodiyotning asosini tashkil qiladi, degan savolga javob topish uchun, avvalo, “ehtiyojlar” degan tushunchani ko‘rib chiqishga to‘g‘ri keladi.

Inson bu dunyoda yashar ekan, uning turli-tuman ehtiyojlari mavjud. Aynan ana shu ehtiyojlar uni o‘qishga, kasb o‘rganishga, o‘z malakasini oshirishga, mehnat qilishga va hattoki, shaharma-shahar yurishga, turar joyini, ayrim hollarda o‘z kasbini ham o‘zgartirishga va boshqalarga majbur qiladi. Kishilarning ehtiyojlari boshqa biologik jonzotlardan farqli o‘laroq, faqat oziq-ovqatga bo‘lgan ehtiyojlar bilan chegaralanib qolmaydi. Ular nihoyatda xilma-xil, doimo o‘zgaruvchan va yuksaluvchan. Inson ehtiyojlarining cheki va poyoni yo‘q, desa bo‘ladi. Shuningdek, insonning yangi-yangi narsalarga, faoliyatlarga bo‘lgan ehtiyoji uning yashash manbai va uni yashashga, rivojlanishga bo‘lgan qiziqishini oshirishi allaqachon isbot qilingan. Ehtiyojlarning xilma-xilligi va doimo o‘zgarib turishi ularning birinchi xususiyati bo‘lsa, ikkinchi xususiyati ularning doimo o‘sib, ortib borishidir. Ana shu har ikki xususiyati bilan ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil qiladi. Ehtiyojlarni shartli ravishda ikki turga bo‘lish mumkin. Ularning birinchisi moddiy ehtiyojlar bo‘lsa, ikkinchisi ma’naviy ehtiyojlardir.

Moddiy ehtiyojlarga kishilarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, uy-ro‘zg‘or anjomlari, transport vositalari, dori-darmon va boshqa narsalarga bo‘lgan ehtiyojlari kiradi. Ma’naviy ehtiyojlar esa bilim olish, malaka oshirish, san’at asarlaridan bahramand bo‘lish, turistik sayohatlarga chiqish, ziyoratgoh joylarni borib ko‘rish, dam olish, uzoq umr ko‘rish uchun salomatlikka e’tibor qaratish va hokazolardan iboratdir. Moddiy ehtiyojlarni ham, ma’naviy ehtiyojlarni ham qondirish uchun kishilar mehnat qiladilar va ana shu mehnat natijasida topilgan daromadlar hisobiga o‘zlari uchun zarur bo‘lgan tovarlar va xizmatlarni sotib oladilar [3].

Demak, odamlarda har xil ehtiyoj mavjud, bu ehtiyojlarni esa faqat ehtiyoj yoki mehnat ehtiyoji deb ataymiz. Ilmiy nuqtayi nazardan kelib chiqiladigan bo‘lsa, kishilarning ehtiyojlari orasida ularning moddiy ehtiyojlari muhimroq ahamiyat kasb etadi. Zero, aynan ana shu ehtiyojlar tufayli ular mehnat jarayonlariga ulanadilar, jamiyat ishlab chiqarishining birlamchi bo‘g‘inlari (korxona, firma va h.k.) paydo bo‘ladi, savdo va tijorat rivojlanadi. Kishilarning mehnat qilishga bo‘lgan ehtiyojlari tufayli yangi ish o‘rinlari tashkil

topadi, yangi yerlar o‘zlashtiriladi, mehnat faoliyatining yangi turlari paydo bo‘ladi.O‘z rizq-u nasibasini mehnatdan topishni bilgan holda amalga oshirilayotgan faoliyat insonlarning nafaqat moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, balki ana shu faoliyat tufayli ular jamiyatda o‘z obro‘ e’tiborini topadilar, shon-shuhrat orttiradilar. Biz, ehtiyojlar jamiyat taraqqiyotining asosini tashkil etadi, degan fikrni yuqorida bildirgan edik. Bu fikrni tasdiqlash uchun shuni ko‘rsatib o‘tish kifoyaki, odamlar yakka tartibda, xoh jamoaga birlashgan holda mehnat qilmasin, o‘z mehnatlarining unumdorligi va samaradorligini oshirish borasidan manfaatdordirlar. Chunki ularning samarali mehnatlari ular ko‘proq daromad oladilar va o‘z ehtiyojlarini to‘laroq qondiradilar. Shu sababli, ishlab chiqarish doimo ehtiyojlar bilan chambarchas bog‘liq.

“Ijtimoiy yo‘nalishdagi bozor iqtisodiyoti” tushunchasi ilk bor Germaniyada paydo bo‘lgan va u yerda uning asosiy tamoyillari ishlab chiqilgan. Bundan mazkur tushuncha shu mamlakatgagina xos degan ma’no kelib chiqmaydi, albatta. Ijtimoiy yo‘naltilgan bozor iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan barcha mamlakatlarda kuzatiluvchi hodisa bo‘lib, unga jamiyat taraqqiyotining tabiiy mahsuli deb qarash mumkin.Ijtimoiy yo‘naltilgan bozor iqtisodiyoti ham iqtisodiy, ham ijtimoiy maqsadlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, birinchidan, mamlakat iqtisodiyotining tashkiliy tuzilishini tartibga solib turadi.Buning uchun davlat iqtisodiyotning faoliyat yuritish tamoyillarini, raqobat qoidalari va tavakkalchilik darajasini tartibga soluvchi iqtisodiy huquqiy asoslarni belgilovchi me’zonlar qabul qiladi. Shu maqsadda mehnat va unga haq to‘lash, mulkchilik va turar joy masalalari, ekologiya va hokazolarga oid tartib-qoidalarni ishlab chiqadi va ularning bajarilishini nazorat qiladi.Ijtimoiy yo‘naltilgan bozor iqtisodiyotining milliy xususiyatlardan kelib chiquvchi turli modellari mavjud bo‘lib, ularning asosiylari nemis, shved, golland va yapon modellaridir.

Bozor iqtisodiyotini raqobatsiz tasavvur etishning o‘zi ham bo‘lmaydi. Chunki har bir tadbirkor o‘z mablag‘ini ko‘proq va tezroq foyda olishi mumkin bo‘lgan sohalarga kiritishga, ishlab chiqargan tovarini bozorda ko‘proq va yuqoriroq bahoda sotishga harakat qiladi. Natijada ham xomashyo bozorida, ham tayyor mahsulotlar bozorida tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida raqobat kurashi paydo bo‘ladi. Bundan keyin "tovar ishlab chiqaruvchilar" degan iborani uchratganingizda shuni nazarda tutingki, unga xizmat ko‘rsatuvchilar ham kiradi (qulaylik uchun shunday qilindi). Raqobat kurashining ikki xil turi - tarmoqlararo va tarmoq ichra raqobat mavjud bo‘lib, ularning birinchisi bir xil tovarlar ishlab chiqarish bilan band bo‘lgan tadbirkorlar raqobatidir.

Tarmoqlararo raqobat esa turli xil tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o‘rtasidagi kurashda namoyon bo‘ladi. tovarlar bozorida ham, asosan, ana shu ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo‘lgan tovarlar mavjud bo‘lgan. Insoniyat jamiyatining taraqqiyoti natijasi o‘laroq yangi-yangi tovarlarga ehtiyoj paydo bo‘la boshlab, bozorga aynan ana shu tovarlar chiqa boshlagan. Bu degani ishlab chiqarishning yangi sohalari va tarmoqlarining paydo bo‘lishiga emas, balki uning rivojlanishi, taraqqiy etishi demakdir. Shunday qilib, moddiy ishlab chiqarish tovarlarga bo‘lgan talabga qarab rivojlanib boradi. Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanishi o‘z navbatida buni ta’minlovchi ishlab chiqarish sohalarining paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan, yer ostidan ko‘mir yoki neft qazib olish uchun o‘sha foydali qazilmalar joylashgan hududga avtomobil yoki temiryo‘llar, umumiy ovqatlanish obyektlari, turar joy binolari va hokazolar qurish kerak, ko‘mir yoki neftni qazib olishga mo‘ljallangan texnologik asbob-uskuna va jihozlar ishlab chiqarishni tashkil qilish va hokaytirish kerak. Endi tabiiy holda bir savol tug‘iladi. Odamlarning tovarlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlari to‘la-to‘kis qondirilishi mumkinmi?

Afsuski, bu savolga ijobiy javob berib bo‘lmaydi. Birinchidan, hamma turdagi resurslar: yer, suv, yer osti foydali qazilmalari va mehnat resurslari cheklangan. Ikkinchidan, har qanday davlatning moliya resurslari ham cheklangan. Va nihoyat, uchinchidan, inson o‘zining doimo o‘sib boruvchi ehtiyojlarini to‘la-to‘kis qondirish uchun hamma vaqt ham yetarli to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lmaydi. Odamlar ehtiyojlarini sifat va miqdor jihatdan o‘sib borishi ayni vaqtda ishlab chiqarishni rivojlantirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi. Chunki tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko‘rsatuvchilar resurslarning cheklanganligi sharoitida mehnat qurollaridan unumliroq foydalanishga, sarf-xarajatlarni kamaytirib borishga hamda ishlab chiqarishni tashkil qilishni takomillashtirib borishga majbur bo‘ladilar. Biroq shuni ham aytib o‘tish kerakki, ishlab chiqarishni tashkil qilish va rivojlantirish zamirida odamlarnigina nafaqat moddiy ehtiyojlarini qondirish zaruriyati yotadi, balki ularning ma’naviy ehtiyojlari, masalan, bilim olishga bo‘lgan ehtiyojlari ta’lim muassasalari (maktab, litsey, kollej va institutlar)ni tashkil qilish va poligrafiya sanoatini rivojlantirishni taqozo etsa, sog‘lig‘ini saqlash va umr ko‘rishga bo‘lgan ehtiyoj tibbiy muassasalarni tashkil qilish, dori-darmon va tibbiy asboblar ishlab chiqarishni rivojlantirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Shunday qilib, odamlarnigina moddiy, ma’naviy va boshqa ehtiyojlari har qanday jamiyatda tovar hamda xizmat ishlab chiqarish va iste’mol qilishning rivojlanish sababidir.Iqtisodiyotning tarkibi va taraqqiyot darajasi har bir mamlakatda o‘ziga xos bo‘lib, mamlakatlararo keskin farq qiladi.Turli mamlakatlar iqtisodiyotining tarkibi va taraqqiyot darajasidagi tafovutlarning sabablari, birinchidan, ularning turlicha tabiiy-iqlimiy sharoitlari bo‘lsa, ikkinchidan, xalqning intellektual (aqliy) salohiyatidagi farqlardir.

Mazkur tafovutlarning yana bir muhim va hal qiluvchi sababi borki, biz bu haqida keyinroq, ya'ni "Iqtisodiy tizimlar va ularning turlari" deb nomlangan paragrafda batafsil to'xtalib o'tamiz. Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot har qanday jamiyatdagi kishilarning asosiy maqsadi o'zining turmush sharoitini yaxshilash, erkin va farovon hayot kechirishdan iborat. Ularning ana shu maqsadga erishish yo'lidagi barcha xatti-harakatlari, intilishlari iqtisodiy imkoniyatlari doirasida amalga oshadi.

Raqobat kurashining ikki xil turi — tarmoq ichra va tarmoqlararo raqobat mavjud bo'lib, ularning birinchisi bir xil tovarlar ishlab chiqarish bilan band bo'lgan tadbirkorlar raqobatidir. Tarmoqlararo raqobat esa turli xil tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi kurashda namoyon bo'ladi. Endi raqobat kurashining bu ikki turi xususida batafsilroq to'xtalib o'tamiz. Tarmoq ichra raqobat o'z mohiyatiga ko'ra iqtisodiy taraqqiyotning juda muhim omili bo'lib xizmat qiladi. Bir xil ehtiyojni qondirishga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi raqobatda "sendan men o'taman" tarzida kurash ketadi. Shunday qilib, tarmoq ichra raqobat tadbirkorlardan bir vaqtning o'zida ikkita muhim vazifa bilan shug'ullanishni taqozo etadi. Ularning birinchisi mahsulot ishlab chiqarishning ko'paytirish bo'lsa, ikkinchisi ishlab chiqarishga yangi texnika va texnologiyani joriy qilish, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtira borishdir. Kam xarajat bilan sifatli mahsulot ishlab chiqargan tadbirkor iqtisodiy jihatdan bardavom bo'ladi, ya'ni sinadi. Tarmoqlararo raqobat ham bozor iqtisodiyoti sharoitida shiddatli kechadi [3].

Chunki har bir tadbirkor o'z mablag'ini qaysi sohada yo'lga qo'ysa, undan olinadigan foyda me'yori bilan qiziqadi. Tadbirkor, qaysi tarmoqda uning sarmoyasi ko'proq foyda keltirsa, u o'z mablag'ini aynan shu tarmoqqa kiritadi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar xo'jalik amaliyotida shunday hollar ham sodir bo'ladiki, tadbirkorlar o'zi faoliyat ko'rsatayotgan tarmoqdan voz kechib, mutlaqo boshqa tarmoqqa ish yurita boshlaydilar. Buning sababi oldin sarmoya kiritilgan tarmoqda foyda me'yorining tushib ketgani va ko'proq foyda olish mumkin bo'lgan boshqa tarmoqning mavjudligidir.Masalan, muzlatkich ishlab chiqaruvchi firma yuqorida ko'rsatilgan holat tufayli konditsioner ishlab chiqarishga, televizor ishlab chiqarayotgan firma kompyuterlar ishlab chiqarishga qayta ixtisoslashuvi mumkin.

Muhokama. Olib borgan tahlillarim davomida bozor muvozanati turli omillar ta'sirida doimiy ravishda o'zgarib turadigan jarayon ekanligi aniqlandi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talab va taklifning har qanday o'zgarishi bozor narxining shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi, narxning o'zgarishi esa muvozanat holatining qayta belgilanishiga olib keladi. Aholi daromadlari, iste'molchilarning xulqi va afzalliklari, ishlab chiqarish xarajatlari hamda texnologiyalardagi yangilanishlar bozorning ikki tomonida ham sezilarli siljishlarni yuzaga keltirishi kuzatildi. Shuningdek, bozor mexanizmining erkin sharoitda o'z-o'zini tartibga solish xususiyati namoyon bo'lishi ham kuzatildi. Talab va taklif o'zgarib turgan bo'lsa ham, bozor ma'lum vaqt o'tishi bilan yangi barqaror narx va ishlab chiqarish hajmiga ega bo'lgan muvozanat holatini shakllantira oladi. Bu esa bozor mexanizmining dinamikligi va ichki moslashuvchanligini ko'rsatadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, bozor muvozanati - bu iqtisodiyotning eng muhim holatlaridan biri bo'lib, unda talab va taklif o'zaro tenglashadi hamda narxlar nisbatan barqarorlashadi. Muvozanatli bozor sharoitida resurslar eng samarali tarzda taqsimlanadi, ishlab chiqaruvchi va iste'molchilar manfaatlari uyg'unlashadi. Ammo bu muvozanat doimiy holat emas - u doimo o'zgaruvchan, tashqi va ichki omillar ta'siri ostida bo'ladi.

Narx o'zgarishlari, aholining daromad darajasi, iste'molchilarning didi va afzalliklari, texnologik taraqqiyot hamda davlatning iqtisodiy siyosati muvozanatga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir o'zgarish talab va taklif egri chiziqlarining siljishiga olib keladi, bu esa yangi muvozanat holatini shakllantiradi. Shu sababli, har bir ishlab chiqaruvchi va iqtisodiy tahlilchi bozor muvozanatini muntazam kuzatib borishi, unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilib, mos strategiyalarni ishlab chiqishi zarur. Zamonaviy iqtisodiyotda bozor muvozanatini saqlash - nafaqat davlat, balki har bir tadbirkor, ishlab chiqaruvchi va iste'molchining manfaatiga xizmat qiladi. Chunki barqaror muvozanat - bu iqtisodiy o'sish, ishonchli narxlar tizimi va jamiyat farovonligining asosidir. Demak, bozor muvozanatini to'g'ri tushunish va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish - iqtisodiy barqarorlikka erishishning eng muhim shartlaridan biridir.

ADABIYOTLAR:

1. Rasulov M. Bozor iqtisodiyoti asoslari. T., "O'zbekiston". 1999.
2. I. Fozilov va boshqalar. Amaliy iqtisodiyot (o'quv qo'llanmasi). Tarjimonlar: T., "Sharq", 1996.
3. O'lmasov A., Sharifxo'jayev M. Iqtisodiyot nazariyasi.T., "Mehnat", 1995.
4. Ergasltev T., Isinatov R. Iqtisodiy savodxonlik asoslari. T., "Sharq", 2001.
5. stat.uz

2030 UZBEKISTAN RESEARCH ONLINE
uzjournals.edu.uz

doi® digital object identifier

Google scholar

ROAD DIRECTORY OF OPEN ACCESS SCHOLARLY RESOURCES

ADVANCED SCIENCES INDEX

"SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY"

The journal was composed in the Editorial and Publishing Department of Bukhara State University.

Editorial address:
Bukhara, 200117
Bukhara State University, main building, 2nd floor, room 219.
Editorial and Publishing Department.
https://buxdu.uz/32-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/131/131-buxoro-davlat-universiteti-ilmiy-axboroti/
e-mail:
nashriyot_buxdu@buxdu.uz

Printing was permitted 29.03.2026 y. Paper format 60x84,1/8. Printed in express printing method. Conditional printing plate – 35,30. Circulation 70. Order № 30. Price is negotiable.

Published in the printing house "BUKHARAHAMD PRINT" LLC
Address: Bukhara, Hofiz tanish Bukhari street, 190 B-house